UDK: 636.32/.38:636.087

QIZILQUM SHAROITIDA QORAQALPOQ SUR QORAKO‘L QO‘YLARINING ETOLOGIK TIPLARI VA ULARNING AVLODLARI TIRIK VAZNI DINAMIKASI

Urimbetov Axmet Abdirazakovich
Qishloq xo‘jaligi fanlari doktori (DSc)
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali
Kalimbetova Aynura Kosherbay qizi
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali magistrant,

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Qizilqum cho‘lining keskin ekologik sharoitida boqilayotgan qoraqalpoq sur qorako‘l qo‘ylarining turli etologik tiplari va ularning avlodlari tirik vazni hamda o‘sish dinamikasi o‘rganilgan. Tadqiqotlar davomida qo‘ylar etologik tiplarga ajratilib, qo‘zilarning tug‘ilish paytidagi, 4–4,5 oylik, 12 oylik va 18 oylik davrlardagi tirik vazni variatsion-statistik usullar asosida tahlil qilindi. Olingan natijalarga ko‘ra, 1-etologik tipga mansub qo‘ylar avlodlari barcha yosh bosqichlarida tirik vazn ko‘rsatkichlari bo‘yicha 2 va 3-etologik tip avlodlaridan ishonchli darajada ustunligi aniqlangan (P<0,001). Tadqiqot natijalari etologik tiplarni hisobga olgan holda seleksiya va naslchilik ishlarini olib borish qorako‘l qo‘ylarining mahsuldorligini oshirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar.*qoraqalpoq sur qorako‘l qo‘ylari, etologik tiplar, tirik vazn, o‘sish dinamikasi, seleksiya, naslchilik, mahsuldorlik, Qizilqum sharoiti*

Mavzuning dolzarbligi. Hozirgi vaqtda dunyoda 400 dan ortiq qo‘y zotlari boqiladi. Shular ichida qorako‘l qo‘ylari o‘ziga xos biologik xususiyatlari, yuqori mahsuldorligi va cho‘l zonalarining qattiq qurg‘oqchil, kam mahsuldor yaylov sharoitlariga yuqori darajada moslashganligi bilan alohida ahamiyatga ega. Qorako‘l qo‘ylarining asosiy mahsuloti bo‘lgan qorako‘l terilari turli ranglari, gul tuzilishining betakrorligi va yuqori sifat ko‘rsatkichlari bilan boshqa qo‘y terilaridan alohida ajralib turadi.

Shu bois qorako‘l qo‘ylarini saqlab qolish, genetik salohiyatidan samarali foydalanish va seleksiya orqali yanada takomillashtirish chorvachilik sohasidagi ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

Hozirgi kunda qorako‘l qo‘ylari dunyoning bir necha o‘nlab mamlakatlarida keng tarqalgan bo‘lib, qorako‘lchilik rivojlangan davlatlar qatoriga Afg‘oniston, Janubiy Afrika Respublikasi, Namibiya, Botsvana va Eron kiradi. Masalan, Afg‘onistonda ko‘proq ko‘k, buxoro sur, qora va shotiri rangli qorako‘l qo‘ylari keng tarqalgan.[2.4.6]

Tajriba maqsadi. Taxtakópir rayonınıń tábiyiy-klimat sharayatlarında sur qarakól qoylarınıń biologiyalıq hám ónimdarlıq ózgesheliklerin ilimiy tiykarlar asosında úyreniw, alınǵan ónimlerdi qayta islew nátiyjeliligin bahalaw hám óndiris procesine selekciyalıq-texnologiyalıq aldıńǵı usıllardı engiziw múmkinshiliklerin anıqlaw.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot ishlari Qizilqum cho‘lining keskin ekologik sharoitlarida joylashgan qoraqalpoq sur qorako‘l qo‘ylari podalarida olib borildi. Tajribalar davomida qo‘ylar konstitutsiyaviy va jun tiplariga qarab guruhlashtirildi, ularning biologik, morfologik va mahsuldorlik ko‘rsatkichlari kompleks tarzda o‘rganildi.

Mahsuldorlik ko‘rsatkichlarini baholashda jun mahsuldorligi (jun chiqimi, tola uzunligi va sifat ko‘rsatkichlari), teri mahsuldorligi (qorako‘l terisining sifat belgilari) hamda go‘sht mahsuldorligi aniqlandi. Bundan tashqari, qo‘ylarning yashovchanligi, chidamliligi va stress omillariga bardoshliligi kuzatuv usuli orqali baholandi.

Olingan ma’lumotlar variatsion-statistik usullar yordamida qayta ishlanib, o‘rtacha ko‘rsatkich (X), standart xatolik (Sx), o‘zgaruvchanlik koeffitsiyenti (Cv) va ishonchlilik darajasi (P) hisoblandi. Tajriba natijalarining ishonchliligi zamonaviy matematik-statistik dasturlar yordamida tekshirildi. Raqamli ma’lumotlar variatsion statistika usullari asosida N.A.Ploxinskiyning "Zootexniklar uchun biometriya bo‘yicha qo‘llanmasi" asosida matematik qayta ishlashdan o‘tkazildi [3.8].

Tadqiqot jarayonida seleksion-tahliliy yondashuv qo‘llanilib, qo‘ylarning konstitutsiya tiplari bilan mahsuldorlik ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi korrelyatsion bog‘liqlik aniqlandi. Olingan natijalar asosida qorako‘l qo‘ylarini tanlash va juftlash bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalari. Tirik vazn seleksiya jarayonida baholanadigan asosiy ko‘rsatkichlardan biri bo‘lib, u hayvonning umumiy rivojlanish darajasi, konstitutsiyaviy mustahkamligi va yashovchanligi bilan chambarchas bog‘liq. Tirik vaznning yuqori darajada bo‘lishi kelgusida mahsulot ishlab chiqarish samaradorligini, stress omillariga chidamlilikni va hayvonning yashovchanligini ta’minlaydi. Aksincha, tirik vaznning past bo‘lishi hayvonlarning o‘sish

sur'atlarining sekinlashishiga va mahsuldorlik ko'rsatkichlarining pasayishiga olib keladi.

Qo'zilarning tug'ilish paytida optimal tirik vazn ko'rsatkichlariga ega bo'lishi ularning kelajakda sog'lom o'sishi va normal rivojlanishi uchun muhim biologik omil hisoblanadi. Bunda ona qo'ylarning salomatlik holati, bo'g'ozlik davrida va tug'gandan keyingi oziqlanish darajasi, shuningdek sutdorlik ko'rsatkichi muhim rol o'ynaydi.

Ilmiy manbalarga [14; 227; 53; 71-72-b.] muvofiq, qo'zilarning tirik vazni va yoshga bog'liq o'sish dinamikasiga etologik tiplarning ozuqadan foydalanish samaradorligi ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi[1.5.7].

Shu asosda, shimoli-g'arbiy Qizilqumning keskin iqlim sharoitlarida turli etologik tipdagi qorako'l qo'ylarining tirik vaznining o'zgaruvchanligini aniqlash maqsadida eksperimental tadqiqotlar o'tkazildi. Olingan natijalar 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Turli etologik tiplarga mansub ona qo'ylardan tug'ilgan qo'zilarning boshlang'ich tirik vazni va unga ta'sir etuvchi omillar

Qo'ylarning etologik tipi	O'rganilgan avlodlar	Tirik vazn, kg.	
		X±Sx	Cv
I	30	4,28±0,05	7,42
II	30	4,03±0,07[x)]	8,11
III	30	3,87±0,06[x)]	6,89

X)-P<0,001

Olingan tajriba natijalari shuni ko'rsatadiki, qo'ylarning etologik tiplaridagi farqlar avlodlarning tug'ilish paytidagi tirik vazniga sezilarli darajada ta'sir etadi. Shu bilan 1-etologik tipga mansub ona qo'ylar avlodlarining o'rtacha tirik vazni 4,28±0,05 kg bo'lib, bu ko'rsatkich 2-etologik tip avlodlarining 4,03±0,07 kg dan 250 g, 3-etologik tip avlodlarining esa 3,87±0,06 kg dan 410 g yuqori ekanligi aniqlandi. Ushbu ustunlik statistik jihatdan ishonchli bo'lib, P<0,001 darajada ahamiyatli deb baholandi.

Shuningdek, 1 va 2-etologik tip avlodlarida 3-etologik tip avlodlariga nisbatan tirik vazn koeffitsiyentining o'zgaruvchanligi yuqori (Cv = 7,42 va 8,11) ekanligi kuzatildi. Bu holat ushbu tiplar uchun tirik vaznni oshirish va seleksiya jarayonida yuqori imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi.

Kelajakda hosildorlikni oshirish va seleksiya hamda naslchilik ishlarini samarali olib borish maqsadida tirik vaznning yoshga bog'liq o'zgarish dinamikasini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Tirik vaznning yuqori darajada bo'lishi hayvonlarda xo'jalik ahamiyatiga ega belgilar kompleksining unumli rivojlanishini ta'minlaydi.

Shu nuqtayi nazardan, har bir etologik tipga mansub qo‘ylarning avlodlarida tirik vaznning o‘zgarish dinamikasini o‘rganishga qaratilgan tadqiqot ishlari amalga oshirildi. Olingan natijalar 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Har xil etologik tipdagi qo‘ylar avlodlarining tirik vazni dinamikasi

Qo‘ylarning etologik tipi	Tirik vazn, kg											
	tug‘ilganda			4-4,5 oylikda			12 oylikda			18 oylikda		
	n	X±Sx	Cv	n	X±Sx	Cv	n	X±Sx	Cv	n	X±Sx	Cv
I	30	4,29±0,05	7,41	30	27,68±0,33	6,84	29	30,12±0,38	6,45	28	36,87±0,42	5,89
II	30	4,03±0,06x)	8,12	30	26,25±0,34x	6,91	27	28,63±0,35x	6,54	27	35,48±0,39	5,41
III	30	3,90±0,05x)	6,88	30	25,12±0,31x)	7,08	26	27,76±0,33x)	6,35	26	34,25±0,36x)	5,64

X)-P<0,001

Ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, barcha yosh bosqichlarida 1-etologik tipga mansub qo‘ylarning avlodlari tirik vazn ko‘rsatkichlari bo‘yicha boshqa tiplar bilan taqqoslaganda doimiy ravishda yuqori natijalarni ko‘rsatgan. Xususan, 1-etologik tip avlodlarining 2- va 3-etologik tip avlodlariga nisbatan ustunligi tug‘ilish paytida mos ravishda 0,26 va 0,40 kg, 4-4,5 oylikda 1,36 va 2,45 kg, 12 oylikda 1,32 va 1,85 kg, 18 oylikda esa 0,82 va 2,46 kg bo‘lgan.

Bu natijalar 1-etologik tip qo‘ylarning o‘sish sur’atlari, konstitutsional barqarorligi va yashovchanligi jihatidan boshqa tiplarga nisbatan ustunligini ko‘rsatadi. Demak, ular seleksiya ishlarida yuqori genetik salohiyatga ega. Shu sababli, ishlab chiqarish sharoitida qo‘ylarni etologik tiplar bo‘yicha ajratib tanlash, har bir tipga mos zotlardan maksimal darajada foydalanish kelajakda mahsuldorlikni oshirish imkoniyatini beradi.

Xulosa. Olib borilgan ilmiy-tajribaviy tadqiqotlar natijalari Qizilqumning keskin ekologik sharoitlarida qoraqalpoq sur qorako‘l qo‘ylarining etologik tiplari ularning avlodlarining tirik vazni, o‘sish sur’atlari va kelajakdagi mahsuldorlik darajasiga muhim darajada ta’sir etishini ko‘rsatdi.

Tadqiqot davomida 1-etologik tipga mansub ona qo‘ylardan tug‘ilgan qo‘zilarning tug‘ilish paytidagi tirik vazni va barcha yosh bosqichlaridagi tirik vazn ko‘rsatkichlari 2 va 3-etologik tip avlodlariga nisbatan ishonchli ravishda yuqori ekanligi aniqlandi (P<0,001). Bu holat 1-etologik tip qo‘ylarining ozuqa iste’mol

qilish samaradorligi, konstitutsiyaviy mustahkamligi va stress omillariga chidamliligi yuqori ekanligini bildiradi.

Shuningdek, tirik vazn ko‘rsatkichlarining o‘zgaruvchanlik koeffitsiyentlari 1 va 2-etologik tip avlodlarida yuqori bo‘lishi, bu guruhda seleksiya orqali tirik vaznni yanada oshirish imkoniyati mavjudligini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, olingan natijalar qoraqalpoq sur qorako‘l qo‘ylarini etologik tiplariga qarab tanlash va juftlash seleksiya ishlarining samaradorligini oshirishda ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Ishlab chiqarish sharoitida 1-etologik tip qo‘ylaridan kengroq foydalanish qo‘zilarning o‘sish darajasini, yashovchanligini va yalpi chorvachilik mahsuldorligini oshirishga imkoniyat beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1.Базарова Д.С., Базаров С.Р., Саттаров С.Б. Қоракўл тери маҳсулдорлигининг совлиқлар конституция типларига боғлиқлиги. *Чорвачилик ва наслчилик иши* журнали. 2022. №5. 34-б.

2.Зарытовский В.С., Лиев М.И. Типы поведения, воспроизводительная способность овец и выживаемость ягнят. *Овцеводство* журнали. 1983. №2. 38–39-б.

3.Плохинский Н.А. Руководство по биометрии для зоотехников. Москва, 1969. 256-б.

4.Уримбетов А.А. Репродуктивный потенциал каракульских овец сур каракалпакского породного типа в зависимости от условий содержания на северо-западе Кызылкумов. *Экологический вестник Северного Кавказа*. 2019. 15(4). 91–93-б.

5.Уримбетов А.А. Турли этологик типдаги қорақалпоқ сур қўйлар авлодларида гул типлари ва типга хос гулларнинг намоён бўлиши. *Chorvachilik va naslchilik ishi* журнали. Тошкент, 2020. №2. 27–28-б.

6.Уримбетов А.А. «Научные основы и селекционные приемы повышения продуктивности каракульских овец каракалпакского сура». Доктор с.-х. наук (DSc) диссертацияси автореферати. Тошкент, 2025.

7.Хатамов А.Х. Турли этологик типдаги қорақалпоқ сур қоракўл қўйларидан олинган қўзилар тирик вазнининг мутлоқ ва нисбий ўсиш кўрсаткичлари. ҚЧЭИТИ. Конференция материаллари. Самарқанд, 2019. 71–72-б.

8.Юсупов С. ва бошқалар. Қоракўлчиликда наслчилик ишларини юритиш ва қўзиларни баҳолаш бўйича қўлланма. Тошкент, 2015. 31-б.